

28
17-69 ✓

O' . P. PRATOV, M. M. NABIYEV

O'ZBEKISTON YUKSAK O'SIMLIKLARINING ZAMONAVIY TIZIMI





20
7-6
O'. P. PRATOV, M. M. NABIYEV

O'ZBEKISTON YUKSAK O'SIMLIKLARINING ZAMONAVIY TIZIMI

Bo'lim, ajdod, qabila, oila,
turkumlarning o'zbekcha, ilmiy
va ruscha nomlari

I kitob



„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2007

Ushbu qo'llanma eng so'nggi, xalqaro qabul qilingan yangi taksonomik birlik va tizimlar asosida O'zbekistonning boy (4500 ga yaqin tur) o'simliklariga moslab yozildi. Unda respublikamiz florasiga oid barcha yirik taksonomik birliklar (ajdod (sinf), ajdod (sinf)cha, qabila, oila, turkum) va bo'limlarning o'zbekcha, ilmiy (lotincha), ruscha nomlari va taksonlarning qo'shimcha (affiks)lari ilk bor to'liq keltirildi.

Taqrizchilar: b.f.d., prof. **O. A. ASHURMETOV,**
b.f.d. **A.S. YULDASHEV**

KIRISH

O'zbekiston o'simliklarga nihoyatda boy respublika.

O'ZRFA „Botanika“ ilmiy-ishlab chiqarish markazi olimlarining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 4500 ga yaqin yuksak o'simlik turlari o'sadi. Bular orasida xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida ishlatib kelinayotgan va O'zbekiston Respublikasi „Qizil kitobi“ ga kiritilgan turlar bor.

Ta'kidlash joizki, maktab o'quvchilari, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun botanika fanidan yoziladigan darslik, o'quv qo'llanma hamda ilmiy ishlarning mazmuni ko'p jihatdan mahalliy materiallar (o'simliklar)ga, ularni qay darajada ilmiy asosda o'rganilganligiga bog'liq.

O'zbekiston o'simliklari to'g'risida yozilgan 6 jildli „Флора Узбекистана“ nomli monografiya 1941—1962- yillarda nashr etilgan. Oxirgi tomning kitobxonlarga havola etilganiga 40 yildan ortiq vaqt o'tdi. Mana shu davr mobaynida botanika fanida, ayniqsa uning flora va sistematikaga oid yo'nalishlarida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, juda ko'p yangi turlar, turkumlar va oilalar kashf etildi. Botanika nomenklaturasi qoidalari zahirida aksariyat taksonomik birliklarga turli darajada o'zgartirishlar kiritildi va sistematikaga oid qator yangi tizimlar ishlab chiqildi. Masalan, loladoshlar oilasi dunyo miqyosida 10 ta, qirqquloqdoshlar 5 ta, toshyorardoshlar 4 ta, tuyatovondoshlar 4 ta mustaqil oilaga ajratildi va ularga o'zbekcha nomlar berildi.

Izlanishlar natijasida O'zbekistonda 4 bo'lim, 8 ajdod, 18 ajdodcha, 111 qabila va 172 oilaga mansub 1003 turkum mavjudligi aniqlandi. Ajratilgan oilalar bilan bir qatorda, qo'shilgan oilalar ham bor.

Botanika nomenklaturasi qoidalariga amal qilingan holda ayrim oilalarning nomlarini turkumlarga asoslanib yozish tavsiya etildi. Unga ko'ra Krestguldoshlar oilasini — Karamdoshlar, Dukkakdoshlarni — Burchoqdoshlar, Labguldoshlarni — Yalpizdoshlar, Soyabondoshlarni — Ziradoshlar, Murakkabguldoshlarni —

Qoqio‘tdoshlar va Boshqodoshlarni — Bug‘doydoshlar deb atash tavsiya etildi.

Uzoq yillar davomida ishlatib kelingan eng yirik birliklardan tip bo‘limga, sinf — ajdodga, tartib — qabilaga aylantirildi va ularning har biriga boshqa birliklarda takrorlanmaydigan qo‘shimchalar (affikslar) berildi (1-jadval).

Darsliklarda va ilmiy asarlarda oraliq birliklarni yasash uchun ishlatib kelinayotgan „kenja“ so‘zi o‘rniga — „cha“ qo‘shimchasi yoki „kichik“ so‘zini ishlatish o‘rinli deb topildi. „Kenja“ so‘zi oilada oxirgi farzand uchun ishlatiladi. Agar bitta qabila yoki turkum 4 ga bo‘linsa, u holda barchasini *kenja qabila* yoki *turkum* deb ishlatib bo‘lmaydi, albatta.

Ayniqsa, darsliklardagi birliklarning qo‘shimchalarini ko‘ngildagidek deyish qiyin. Buni sinf (ajdod), sinfcha (ajdodcha), qabila va oilalarga berilgan qo‘shimchalarda yaqqol ko‘rish mumkin. Masalan, bo‘limga — *simonlar, lilar, lar*; sinf (ajdod)ga — *simon, lilar, simonlar, namolar*; qabilaga — *namo, dor, lar, lilar, gullilar, kabilar*; oilaga — *dosh, guldosh, lar, gullar* singari qo‘shimchalar qo‘shib yozib kelindi. Qayd etilganlardan ko‘rinib turibdiki, bitta qo‘shimcha turlicha kattalikdagi birliklar uchun qo‘llanilgan.

Qo‘shimchalardagi chalkashliklarni tugatish maqsadida bo‘limga **toifa**, bo‘limchaga **singari**; ajdod (sinf) ga — *simon, lilar*; ajdodchaga — *kabi*; qabilaga — *namo, dor*; oilaga — *dosh, guldosh* affikslarini qo‘shib yozishni tavsiya etamiz.

Darsliklarda ko‘p ishlatiladigan birlik — oilalarning ilmiy va o‘zbekcha nomlarini yozishda juda ko‘p chalkashliklarga yo‘l qo‘yildi. Mana shulardan ayrimlari: Torondoshlar oilasi — Otquloqlar yoki Grechixalar, Yalpizdoshlar oilasi — Yasnotka yoki Labguldoshlar, Loladoshlar oilasi — Liliyadoshlar, Ra‘nodoshlar oilasi — Roza-doshlar, Atirguldoshlar, deb yozib kelindi.

Bo‘limdan turkumgacha bo‘lgan sistematik birliklarni aniq tasavvur etish maqsadida „Botanika nomenklaturasining xalqaro kodeksi“ (rus tilida) hamda juda ko‘p ilmiy asarlar, darsliklar va lug‘atlar o‘rganilib, qiyoslandi va tahlil qilindi.


**Sistematik birliklar (kategoriyalar)ning
nomlari va qo'shimcha (affiks)lari**

№	Ilmiy (lotincha) nomi	Qo'shimcha- lari	O'zbekcha nomi	Qo'shimcha- lari
1	Regnum (Vegetabile)	—	O'simliklar dunyosi	—
2	Subregnum (Vegetabile)	—	O'simliklar dunyo- chasi (kichik dunyosi)	—
3	Divisio	phyta	Bo'lim	toifa
4	Subdivision	phytina	Bo'limcha, kichik bo'lim	singari
5	Classis	opsida	Ajdod (sinf)	simon, lilar
6	Subclassis	idae	Ajdodcha (sinfcha) kichik ajdod	kabilar
7	Ordo	ales	Qabila(tartib)	namo, dor
8	Subordo	ineae	Qabilacha, kichik qabila	
9	Familia	aceae	Oila	dosh, guldosh
10	Subfamilia	oideae	Oilacha, kichik oila	
11	Tribus	eae	Bo'g'in	—
12	Subtribus	inae	Bo'g'incha, kichik bo'g'in	—
13	Genus	—	Turkum	—
14	Subgenus	—	Turkumcha, kichik turkum	—
15	Sectio	—	Seksiya	—
16	Subsectio	—	Seksiyacha, kichik seksiya	—
17	Series	—	Seriya	—
18	Subseries	—	Seriyacha, kichik seriya	—
19	Species	—	Tur	—
20	Subspecies	—	Turcha, kichik tur	—
21	Varietas	—	Tur xili	—
22	Forma	—	Forma(shakl), xil	—

Gulli o'simliklar uchun akademik A.L.Taxtadjyan (1987-y.) ishlab chiqqan evolyutsion tizim (sistema) asos qilib olindi. Unda 8 ta ajdodcha keltirilgan. 1997- yilda muallif unga kiritgan ayrim o'zgarishlar matnda inobatga olindi.

Quyida ikki urug'pallali o'simliklar ajdodi (sinfi)ga oid gulli o'simliklarning ajdod (sinf)cha va ustqabilalardan iborat tizimi sxemasi (1-sxema) keltirildi.


1- sxema



Ajdodchalar: 1. Magnoliyakabilar (Magnoliidae). 2. Ayiqtovonkabilar (Ranunculidae). 3. Chinnigulkabilar (Caryophyllidae). 4. Temirdaraxtkabilar (Hamamelididae). 5. Dalachoykabilar (Dilleniidae). 6. Ra'nokabilar (Rosidae). 7. Qoqio'tkabilar (Asteridae). 8. Yalpizkabilar (Lamiidae).

2- sxemada bir urug'pallali o'simliklar ajdodi (sinfi)ga mansub gulli o'simliklarning ajdod (sinf) va ustqabilalardan iborat tizimi sxemasi keltirilgan . Unda 4 ta ajdod (sinf)cha berilgan.

Bu tizim chet ellarda to'lig'icha yoki ayrim o'zgartirishlar bilan hayotga joriy etilgan. Shu asosda yangi darslik va ilmiy asarlar yozila boshlandi. Bizda esa ingliz, rus va boshqa tillarda nashr etilgan asarlar ozligi hamda ulardagi o'zgarishlarning O'zbekiston florasiga (o'simliklariga) moslab yozilgan asarlarning kamligi tufayli aksa-



Ajdodchalar: 1. Lolakabilar (Liliidae). 2. Palmakabilar (Arecidae).
3. Bulduruqkabilar (Alismafiidae). 4. Triuriskabilar (Triurididae).

riyat darslik, o'quv qo'llanma va ilmiy asarlar eski sistematik birliklar va atamalar bilan nashr etilmoqda va o'qitilmoqda.

Tavsiya etilayotgan yirik taksonlar tizimi botanika fanining dunyo miqyosida tan olingan eng muhim nazariy g'oyalarini o'zida mujassamlashtirgan va fanning so'nggi yutuqlariga asoslangan. Undan botanikaga oid ilmiy asarlar, „O'simliklar sistematikasi“ kursidan ma'ruza matnlarini yozishda, mavjud darsliklarda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etishda, akademik litsey, kollej va maktablarda dars berishda hamda „Botanika“ dan darsliklar yozishda foydalanish mumkin.

Qo'llanmaning oxirida misol tariqasida ayrim qabilalardan bittadan rasm berildi.

Mazkur asarda bayon etilgan ma'lumotlar yuzasidan o'z fikr-mulohazalaringizni bildirasiz degan umiddamiz.

Mualliflar

**O'SIMLIKLAR DUNYOSI—REGNUM VEGETABILE
YOKI PLANTAE — ЦАРСТВО РАСТЕНИЙ**

**YUKSAK O'SIMLIKLAR DUNYOCHASI—EMBRYOBIONTA
YOKI EMBRYOPHYTA**

**SPORALI YUKSAK O'SIMLIKLAR—ВЫСШИЕ
СПОРОВЫЕ РАСТЕНИЯ**

***Bo'lim.* Qirqbo'g'imtoifa o'simliklar (Equisetophyta) —
Хвощевидные**

**Ajdod (sinf). Qirqbo'g'imsimonlar (Equisetopsida) — Хвощо-
вые**

**Qabila. (tartib). Qirqbo'g'imnamolar (Equisetales) —
Хвощовые**

**Oila. Qirqbo'g'imdoshlar (Equisetaceae Rich. ex DC.) —
Хвощовые**

Turkum. Qirqbo'g'im (Equisetum L.) — Хвощ

***Bo'lim.* Qirqquloqtoifa yoki paporotniktoifa o'simliklar
(Polypodiophyta) — Папоротниковидные или папорот-
ники**

**Ajdod (sinf). Ilontilsimonlar yoki ofioglossimonlar
(Ophioglossopsida) — Ужовниковые или офиоглоссовые**

**Qabila. Ilontilnamolar yoki ofioglossnamolar (Ophio-
glossales) — Ужовниковые**

**Oila. Ilontildoshlar yoki ofioglossdoshlar (Ophioglossaceae
(R.Br.) Agardh) — Ужовниковые**

Turkum. Ilontili yoki ofioglossum (Ophioglossum L.) — Ужовник

Turkum. Shingilcha (Botrychium Sw.) — Гвоздовник

**Ajdod (sinf). Qirqquloqsimonlar (Polypodiopsida)—
Полиподиевые**

**Ajdodcha (sinfcha). Qirqquloqkabilar (Polypodiidae)—
Полиподиевые**

**Qabila. Qirqquloqnamolar yoki siateyanamolar (Cyatheaales)—
Циатейные**

Oila. Qirqquloqdoshlar (Athyriaceae Alst.) — Кочедыжниковые

Turkum. Atirium, qirqquloq (Athyrium Roth.) — Кочедыжник

Turkum. Pufakdor (Cystopteris Bernh.) — Пузырник

Oila. Aspidiyadoshlar (Aspidiaceae Mett. ex Frank) — Аспидиевые

Turkum. Qirqquloq (Dryopteris Adans.) — Щитовник

Turkum. Serqator (Polystichum Roth.) — Многорядник

Oila. Telipterisdoshlar (Thelypteridaceae Pichi Spermolli) — Телиптерисовые

Turkum. Telipteris (Thelypteris Schmidel) — Телиптерис

Oila. Taloqdoridoshlar (Aspleniaceae Mett. ex Frank) — Костенцовые или Асплениевые

Turkum. Taloqdori, Toshsumbul (Asplenium L.) — Костенец или асплениум

Turkum. G'oro't (Phyllitis Hill.) — Листовик

Oila. Chetisporadoshlar (Sinopteridaceae Koidz.) — Синоптерисовые

Turkum. Chetispora (Cheilanthes Sw.) — Краскучник

Ajdodcha (sinfcha). Marsiliyakabilar (Marsileidae)— Марсилиевые

Qabila. Marsiliyanamolar (Marsileales) — Марсилиевые

Oila. Marsiliyadoshlar (Marsileaceae Mirb.) — Марсилиевые

Turkum. Marsiliya (Marsilea L.) — Марсиля

Ajdodcha (sinfcha). Salviniyakabilar (Salviniidae) — Сальвиниевые

Qabila. Salviniyanamolar (Salviniales) — Сальвиниевые

Oila. Salviniyadoshlar (Salviniaceae Dumort.) — Сальвиниевые

Turkum. Suv qirqqulog'i, Salviniya (Salvinia Seguiet) — Сальвиния

**Qabila. Suvsumbulnamolar yoki sxizeyanamolar (Schizaeales)
— Схизейные**

Oila. Suvsumbuldoshlar Adiantaceae (C.Presl) Ching — Адиантовые

Turkum. Suvsumbul (Adiantum L.) — Адиантум

URUG'LI O'SIMLIKLAR

Bo'lim. Qarag'aytoifa (Ochiq urug'li) o'simliklar (Pynophyta yoki Gymnospermae)—Голосеменные

Ajdod (sinf). Qizilchasimonlar yoki gnetsimonlar (Gnetopsida)
— Гнетовые

Qabila. Qizilchanamolar (Ephedrales) — Эфедровые

Oila. Qizilchadoshlar (Ephedraceae Dumort.) — Эфедровые

Turkum. Qizilcha (Ephedra L.) — Эфедра, Хвойник

Ajdod (sinf). Ginkgosimonlar (Ginkgoopsida) — Гинк-
ГОВЫЕ

Oila. Ginkgodoshlar (Ginkgoaceae Engl.) — ГинкГОВЫЕ

Turkum. Ginkgo (Ginkgo L.) — Гинкго

Ajdod (sinf). Qarag'aysimonlar (Pinopsida) — Хвойные

Ajdodcha (sinfcha). Qarag'aykabilar (Pinidae)— Хвойные

Qabila. Qarag'aynamolar (Rinales) — Сосновые

Oila. Qarag'aydoshlar (Pinaceae Lindl.) — Сосновые

Turkum. Qoraqarag'ay (Picea A. Dietr.) — Ель

Turkum. Kedr (Cedrus Link.) — Кедр

Turkum. Qarag'ay, sosna (Pinus L.) — Сосна

Qabila. Sarvnamolar (Cupressales) — Кипарисовые

Oila. Taksodiyadoshlar (Taxodiaceae Warm.) — Таксодиевые

Turkum. Taksodiya (Taxodium Rich.) — Таксодий

Turkum. Sekvoyadendron (Sequoiadendron Bushholz.)—Секвойден-
дрон

Oila. Sarvdoshlar (Cupressaceae Bartl.)— Кипарисовые

Turkum. Tuyopsis (Thujopsis Sieb. et Zucc.) — Туевые

Turkum. Tuя (Thuja L.) — Туя

Turkum. Saur (Platycladus Spach.)— Платикладус

Turkum. Sarv (Cupressus L.) — Кипарис

Turkum. Kiparisovik (Chamaecyparis Spach.) — Кипарисовик

Turkum. Archa (Juniperus L.) — Можжевельник

Qabila. Tisssnamolar (Taxales) — Тиссовые

Oila. Tisssdoshlar (Taxaceae Lindl.) — Тиссовые

Turkum. Tiss (Taxus L.) — Тисс

Bo'lim. Magnoliyatoifa (gulli, yopiq urug'li)
o'simliklar (Magnoliophyta yoki Angyospermae) —
Магнолиевые или Цветковые, или Покрытосеменные
Ajdod (sinf). Magnoliyasimonlar (ikki urug'pallalilar)
(Magnoliopsida yoki Dicotyledones) — Магнолиевые или
Двудольные

Ajdodcha (sinfcha). Magnoliyakabilar (Magnoliidae)— Маг-
нолиевые

Qabila. Magnoliyanamolar (Magnoliales)— Магнолиевые

Oila. Magnoliyadoshlar (Magnoliaceae Juss.) — Магно-
лиевые

Turkum. Magnoliya (Magnolia L.) — Магнолия

Turkum. Lola daraxti (Liriodendron L.) — Тюльпанное дерево

Qabila. Kirkazonnamolar (Aristolochiales)— Кирказо-
новые

Oila. Kirkazondoshlar (Aristolochiaceae Juss.) — Кирказо-
новые

Turkum. Kirkazon (Aristolochia L.)— Кирказон

Qabila. Kalikantnamolar (Calycanthales) — Каликанто-
вые

Oila. Kalikantdoshlar (Calycanthaceae Lindl.) — Каликан-
товые

Turkum. Kalikantus (Calycanthus L.)— Каликантус

Qabila. Sho'rso'tanamolar (Cynomoriales)— Циномори-
евые

Oila. Sho'rso'tadoshlar (Cynomoriaceae Lindl.) — Цино-
мorieвые

Turkum. Sho'rso'ta (Cynomorium L.) — Циноморий

Ajdodcha (sinfcha). Nilufarkabilar (Nymphaeaidae)— Ним-
фейные

Qabila. Nilufarnamolar (Nymphaeales) — Кувшинковые

Oila. Nilufardoshlar (Nymphaeaceae R.A.Salisb.) — Кув-
шинковые

Turkum. Nilfiya (Nymphaea L.) — Кувшинка

Turkum. Nilufar, Nufar (Nuphar Smith) — Кубышка

**Qabila. Shoxbargnamolar (Ceratophyllales) — Роголист-
никовые**

Oila. Shoxbargdoshlar (Ceratophyllaceae S.F.Gray) — Ро-
голистиковые

Turkum. Shoxbarg (Ceratophyllum L.) — Роголистик

Ajdodcha (sinfcha). Ayiqtovonkabilar (Ranunculidae)— Лю-
тиковые

Qabila. Zirknamolar (Berberidales) — Барбарисовые

Oila. Zirkdoshlar (Berberidaceae Juss.) — Барбарисовые

Turkum. Yersovun (Leontice L.) — Леонтице

Turkum. Bongardiya (Bongardia C.A.Mey.) — Бонгардия

Turkum. Maxoniya (Mahonia Nutt.) — Магония

Turkum. Zirk, qoraqant (Berberis L.) — Барбарис

**Qabila. Ayiqtovonnamolar (Ranunculales) — Лютико-
вые**

Oila. Ayiqtovondoshlar (Ranunculaceae Juss.) — Лютиковые

Turkum. Bahorgul (Shibateranthis Nakai = Eranthis Salisb.) —
Весенник

Turkum. Tangacho'p, Tengmeva (Isopyrum L.) — Равноплодник

Turkum. Soxtasuvdon (Paraquilegia J. Drumm. et Hutch.) — Лжево-
досбор

Turkum. Suvyig'ar, akvilegiya (Aquilegia L.)— Водосбор

Turkum. Sanchiqo't, Chingalak, Xaladori (Thalictrum L.) — Васи-
листник

Turkum. Pufanak (Anemone L.)—Ветреница

Turkum. Qoraburma, Pulsatilla (Pulsatilla Mill.) —Прострел

Turkum. Ilono't (Clematis L.)—Ломонос

Turkum. Trollius, Kunkeldi (Trollius L.) — Купальница

Turkum. Xegemone (Hegemone Bunge) — Гегемона

Turkum. Go'zalgul (Callianthemum S.A.Mey.) — Каллиантемум,
Красивоцветник

Turkum. Sug'uro't (Adonis L.) — Горичвет

Turkum. Sudralma (Halerpestes Greene) — Ползунок

Turkum. Ayiqtovon (Ranunculus L.) — Лютик

Turkum. Namut (Batrachium (DC.) S.F. Gray) — Водяной лютик

Turkum. Otashak, Uchma, Qo'ytikan (Ceratocephala Moench) —
Рогоглавник

Turkum. Sedana (Nigella L.) — Чернушка

Turkum. Parpi (Aconitum L.) — Аконит

Turkum. Isfarak (Delphinium L.) — Живокость

Qabila. Sallagulnamolar (Paeoniales) — Пионовые

Oila. Sallaguldoshlar (Paeoniaceae Rudolphi) — Пионовые

Turkum. Sallagul (Paeonia L.) — Пион

Qabila. Ko'knornamolar (Papaverales) — Маковые

Oila. Ko'knordoshlar (Papaveraceae Juss.) — Маковые

Turkum. Qoncho'p (Chelidonium L.) — Чистотел

Turkum. O'rmonqora (Glaucium Mill.) — Глядициум

Turkum. Qizg'aldoq (Roemeria Medik.) — Ремерия

Turkum. Ko'knor (Papaver L.) — Мак

Oila. Bo'g'immevadoshlar (Hypseoaceae Nakai) — Гипеко-
умовые

Turkum. Bo'g'immeva (Hypseocum L.) — Гипекоум

Oila. Shotaradoshlar (Fumariaceae DC.) — Дымянковые

Turkum. Ditsentra (Dicentra Bernh.) — Дицентра

Turkum. Burmaqora (Corydalis Vent.) — Хохлатка

Turkum. Shotara (Fumaria L.) — Дымянка

Turkum. Shotaracha (Fumariola Korsh.) — Дымяночка

Ajdodcha (sinfcha). Chinnigulkabilar (Caryophyllidae) —
Гвоздичные

**Qabila. Chinnigulnamolar (Caryophyllales) — Гвоздич-
ные**

Oila. Mingguldoshlar (Phytolaccaceae R.Br.) — Лаконосные

Turkum. Minggul (Phytolacca L.) — Лаконос

Oila. Nomozshomguldoshlar (Nyctaginaceae Juss.) — Ник-
тогиновые

Turkum. Nomozshomgul (Mirabilis L.) — Ночная красавица

Oila. Semizo'tdoshlar (Portulacaceae Juss.) — Портулаковые

Turkum. Semizo't (Portulaca L.) — Портулак

Oila. Chinniguldoshlar (Caryophyllaceae Juss.) — Гвоз-
дичные

Turkum. Spergulariya (Spergularia (Pers.) J.et C.Persl) — Торичник

Turkum. Samino't (Herniaria L.) — Грыжник

Turkum. Minuarsiya (Minuartia L.) — Минуарция

Turkum. Shudgoro't (Lepyrodiclis Fenzl) — Пашенник

Turkum. Kuveriya (Queria L.) — Кверия

Turkum. Bufoniya (Bufonia L.) — Бюфония

Turkum. Sagina (Sagina L.) — Mshanka

Turkum. Qumo't (Arenaria L.) — Песчанка

Turkum. Tittostemma (Tyttostemma Nevski) — Незначительноко-
ронник

- Turkum.** Meringiya (Moehringia L.) — Мерингия
- Turkum.** Qalampiro't (Holosteum L.) — Голостеум, Костенечник
- Turkum.** Yulduzo't (Stellaria L.) — Звездчатка
- Turkum.** Mezostemma (Mesostemma Vved.) — Мезостема; Умерен-
нокоронник
- Turkum.** Muguzo't (Cerastium L.) — Ясколка
- Turkum.** Yetmak, bex (Acanthopyllum C.A.Mey.) — Колючелистник
- Turkum.** Yersovun (Saponaria L.) — Мыльнянка
- Turkum.** Qoramug' (Vaccaria N.M.Wolf) — Тысячеголов
- Turkum.** Valeziya (Valezia L.) — Валесия
- Turkum.** Petroragiya (Petrohragia (Ser. ex DC.) Link =Tunica Scop.) —
Петрорагия
- Turkum.** Chinnigul (Dianthus L.) — Гвоздика
- Turkum.** Zo'rcha (Silene L.) — Смолевка
- Turkum.** Randak (Agrostemma L.) — Куколь
- Turkum.** Tog'chitir (Gypsophila L.) — Качим
- Turkum.** Melandrium (Melandrium Roehl.) — Дрема
- Oila.** Gultojixo'rozdoshlar (Amaranthaceae Juss.) — Амарантовые
- Turkum.** Gultojixo'roz (Celosia L.) — Целозия
- Turkum.** Machin (Amaranthus L.) — Ширица
- Turkum.** Gomfrena (Gomphrena L.) — Гомфрена
- Oila.** Sho'radoshlar (Chenopodiaceae Vent.) — Маревые
- Turkum.** Lavlagi (Beta L.) — Свекла
- Turkum.** Poliknemum (Polycnemum L.) — Хруплявник
- Turkum.** Sho'ra (Chenopodium L.) — Марь
- Turkum.** Ismaloq (Spinacia L.) — Шпинат
- Turkum.** Olabuta (Atriplex L.) — Лебеда
- Turkum.** Senniyella (Senniella Aellen) — Сенниелла
- Turkum.** Teresken (Krascheninnikovia Gueldenst.) — Терескен
- Turkum.** Ebalak (Ceratocarpus L.) — Рогач, Эбелек
- Turkum.** Qoramatov (Camphorosma L.) — Камфоросма
- Turkum.** Panderiya (Panderia Fich. et C.A.Mey.) — Пандерия
- Turkum.** Kiriloviya (Kirilovia Bunge) — Кириловия
- Turkum.** Londeziya (Londesia Fisch. et C.A.Mey.) — Лондезия
- Turkum.** Bassiya (Bassia All. = Echinopsilon Moq.) — Бассия
- Turkum.** Izen (Kochia Roth) — Кохия, изень
- Turkum.** Qumtariq (Corispermum L.) — Верблюдка
- Turkum.** Qumarchiq (Agriophyllum M.Bieb. ex C.A.Mey.) — Кумарчик
- Turkum.** Antoxlamis (Anthochlamys Fenzl) — Антохлямис
- Turkum.** Shoxilak (Kalidium Moq.) — Поташник
- Turkum.** Xalopeplis (Halopeplis Bunge ex Ung. — Sternb.) — Соровник
- Turkum.** Qorabaroq (Halostachys C.A.Mey.) — Соляноколосник
- Turkum.** Sarsazon (Halocnemum M.Bieb.) — Сарсазан

- Turkum.** Qizil sho'ra (*Salicornia* L.) — Солерос
- Turkum.** Sariqsag'an (*Horaninovia* Fisch. et C.A.Mey.) — Гораниновия
- Turkum.** Ilyiniya (*Iljinia* Korov.) — Ильиния
- Turkum.** Zeydlitsiya (*Seidlizia* Bunge) — Зейдлиция
- Turkum.** Sho'rak (*Salsola* L.) — Солянка
- Turkum.** Chogon (*Holothamnus* Jaub. et Spach) — Галотамнус
- Turkum.** Bo'g'inak (*Arthrophytum* Schrenk) — Саксаульчик
- Turkum.** Saksovul (*Haloxylon* Bunge) — Саксаул
- Turkum.** Hammada (*Hammada* Ijin) — Гаммада
- Turkum.** Ofaiston (*Ofaiston* Rafin.) — Офайстон
- Turkum.** Noea (*Noaea* Moq.) — Ноэа
- Turkum.** Sag'an (*Girgensohnia* Bunge) — Гиргензония
- Turkum.** Biyurg'un (*Anabasis* L.) — Ежовник
- Turkum.** Toshbiyurg'un (*Nanophyton* Less.) — Нанофитон, Тасби-
юргун
- Turkum.** To'rg'ayo't (*Petrosimonia* Bunge) — Петросимония
- Turkum.** Quyonjun (*Halocharis* Moq.) — Галохарис
- Turkum.** Halotis (*Halotis* Bunge) — Галотис
- Turkum.** Buzoqbosh (*Halimocnemis* C.A.Mey.) — Галимокнемис
- Turkum.** Piptoptera (*Piptoptera* Bunge) — Пиптоптера, Падуче-
крыльник

Turkum. Donasho'r (*Gamanthus* Bunge) — Спайноцветник, Га-
мантус

- Turkum.** Baliqko'z (*Climacoptera* Botsch.) — Климакоптера
- Turkum.** Kornulaka (*Cornulaca* Delile) — Корпулака
- Turkum.** Halogeton (*Halogeton* S.A.Mey.) — Галогетон
- Turkum.** Qorabargo't (*Suaeda* Forsk. ex Scop.) — Сведа
- Turkum.** Aleksandra (*Alexandra* Bunge) — Александра
- Turkum.** Borshoviya (*Borsczowia* Bunge) — Борщовия

Qabila. Toronnamolar (Polygonales) — Гречишные

Oila. Torondoshlar (*Polygonaceae* Juss.) — Гречишные

- Turkum.** Rovoch (*Rheum* L.) — Ревень
- Turkum.** Otquloq (*Rumex* L.) — Щавель
- Turkum.** Qimizak (*Oxyria* Hill.) — Кисличник
- Turkum.** Tuyasingren (*Atraphaxis* L.) — Курчавка
- Turkum.** Juzg'un, Qandim (*Calligonum* L.) — Кандым, Жузгун
- Turkum.** Toron (*Polygonum* L.) — Горлец
- Turkum.** Grechka (*Fagopyrum* Mill.) — Гречиха

Qabila. Karmaknamolar (Plumbaginales) — Свинчатковые

Oila. Plumbagelladoshlar (*Plumbaginaceae* Juss.) — Свин-
чатковые

- Turkum.** Plumbagella (*Plumbagella* Spach) — Зубница

Oila. Karmakdoshlar (Limoniaceae Lincz.) — Кермековые
Turkum. Kiprio't (Acantholimon Voiss.) — Аканталимон
Turkum. Sefalorizum (Cephalorhizum M.Pop. et Korov.) — Карнеглав
Turkum. Xetolimon (Chaetolimon (Bunge) Lincz.) — Хетолимон
Turkum. Goniolimon (Goniolimon Boiss.) — Гониолимон
Turkum. Karmak (Limonium Mill.) — Кермек
Turkum. Psillostaxis (Psylliostachys (Jaub. et Spach) Nevski) — По-
дорожничкоцветник

Ajdodcha (sinfcha). *Temirdaraxtkabilar (Hamamelididae)*
— Гамамелисовые

**Qabila. Temirdaraxtnamolar (Hamamelidales) — Гама-
мелисовые**

Oila. Temirdaraxtdoshlar (Hamamelidaceae R.Br.) — Гама-
мелисовые

Turkum. Temirdaraxt (Parrotia C.A.Mey.) — Железное дерево

Oila. Chinordoshlar (Platanaceae Dumort.) — Платановые

Turkum. Chinor (Platanus L.) — Платан

Qabila. Shamshodnamolar (Buxales) — Самшитовые

Oila. Shamshoddoshlar (Buxaceae Dumort.) — Самшитовые

Turkum. Shamshod (Buxus L.) — Самшит

Qabila. Emannamolar (Fagales) — Буковые

Oila. Emandoshlar (Fagaceae Dumort.) — Буковые

Turkum. Kashtan (Castanea Mill.) — Каштан

Turkum. Eman (Qilercus L.) — Дуб

Turkum. Qoraqayin (Fagus L.) — Бук

Qabila. Qayinnamolar (Corylales) — Берёзовые

Oila. Qayindoshlar (Betulaceae S.F.Gray) — Берёзовые

Turkum. Qayin (Betula L.) — Берёза

Oila. Leshinadoshlar (Corylaceae Mirb.) — Лещиновые

Turkum. Leshina (Corylus L.) — Лещина

Qabila. Yong'oqnamolar (Juglandales) — Ореховые

Oila. Yong'oqdoshlar (Juglandaceae A.Rich. ex Kunth) —
Ореховые

Turkum. Yong'oq (Juglans L.) — Орех

Ajdodcha (sinfcha). *Dalachoykabilar (Dilleniidae)* — Дилле-
ниевые

Qabila. Dalachoynamolar (Hypericales) — Зверобойные

Oila. Dalachoydoshlar (Hypericaceae Juss. = Guttiferae juss.) — Зверобойные

Turkum. Dalachoy (Hypericum L.) — Зверобой

Qabila. Tilbargnamolar (Elatinales)—Повойничковые

Oila. Tilbargdoshlar (Elatinaceae Dumort.) — Повойнич-
КОВЫЕ

Turkum. Bergiya (Bergia L.) — Бергия

Qabila. Hasharotxo'rdamolar (Droserales) — Росянковые

Oila. Hasharotxo'rdoshlar (Droseraceae Salisb.) — Росян-
КОВЫЕ

Turkum. Hasharotxo'r, Aldrovanda (Aldrovanda L.) — Алдрованда

Qabila. Aktinidiyanamolar (Actinidiales) — Актинидиевые

Oila. Aktinidiyadoshlar (Actinidiaceae Hutch.) — Актинидиевые

Turkum. Aktinidiya (Actinidia Lindl.) — Актинидия

Qabila. Xurmonamolar (Styracales) — Эбеновые или хурмовые

Oila. Xurmodoshlar, safsandoshlar (Ebenaceae Guerke) —
Эбеновые

Turkum. Xurmo, safsan (Diospyros L.) — Хурма

**Qabila. Navro'zgulnamolar (Primulales) — Первоцвет-
ные**

Oila. Navro'zguldoshlar (Primulaceae Vent.) — Первоцветные

Turkum. Navro'zgul (Primula L.) — Первоцвет

Turkum. Dioniziya (Dionysia Fenzl) — Дионизия

Turkum. Kortuza (Cortusa L.) — Кортуза

Turkum. Androzatse (Androsace L.) — Проломник

Turkum. Lizimaxiya (Lysimachia L.) — Вербейник

Turkum. Glyauks (Glaux L.) — Гляукс, Млечник

Turkum. Sovuno't (Anagallis L.) — Очноцвет

Turkum. Samolus (Samolus L.) — Самолюс


**Qabila. Gunafsha (Binafsha) namolar (Violales) — Фи-
алковые**

Oila. Gunafshadoshlar (Violaceae Batsh) — Фиалковые

Turkum. Gunafsha (Viola L.) — Фиалка

Qabila. Tolnamolar (Salicales) — Ивовые

Oila. Toldoshlar (Salicaceae Mirb.) — Ивовые



Turkum. Terak (*Populus* L.) — Тополь

Turkum. Tol (*Salix* L.) — Ива

Qabila. Yulg'unnamolar (Tamaricales) — Тамарисковые

Oila. Yerbag'irdoshlar (*Reaumuriaceae* Ehrenb.) — Реомюриевые

Turkum. Yerbag'ir (*Reaumuria* L.) — Реомюрия

Oila. Yulg'undoshlar (*Tamaricaceae* Link) — Гребенщиковые

Turkum. Yulg'un (*Tamarix* L.) — Гребенщик

Turkum. Balqin (*Myricaria* Desv.) — Мирикария

Oila. Uchchanoqdoshlar (*Frankeniaceae* S.F.Gray) — Франкениевые

Turkum. Uchchanoq (*Frankenia* L.) — Франкения

Qabila. Qovoqnamolar (Cucurbitales) — Тыквенные

Oila. Qovoqdoshlar (*Cucurbitaceae* Juss.) — Тыквенные

Turkum. Tladiana (*Thladiantha* Bunge) — Тладианта

Turkum. Tarvuz (*Citrullus* Schrad.) — Арбуз

Turkum. Qozonyuv'ich (*Luffa* Adans.) — Люффа

Turkum. Sirttan (*Bryonia* L.) — Переступень

Turkum. O'qotar (*Ecballium* A.Rich.) — Бешеный огурец

Turkum. Suvqovoq, Nosqovoq, Idishqovoq (*Lagenaria* Ser.) — Горлянка

Turkum. Bodring (*Cucumis* L.) — Огурец

Turkum. Qovun (*Melo* Hill.) — Дыня

Turkum. Kakar, Burnaki (*Echinocystis* Torr. et Gray) — Эхиноцистис

Turkum. Qovoq (*Cucurbita* L.) — Тыква

Qabila. Qizilyuguruknamolar (Begoniales) — Датисковые

Oila. Qizilyugurukdoshlar (*Datiscaceae* Lindl.) — Датисковые

Turkum. Qizilyuguruk (*Datisca* L.) — Датиска

Qabila. Kovulnamolar (Capparales) — Каперцовые

Oila. Kovuldoshlar (*Capparaceae* Juss.) — Каперцовые

Turkum. Kovul (*Capparis* L.) — Каперцы

Turkum. Kleome (*Cleome* L.) — Клеоме

Oila. Karamdoshlar (*Brassicaceae* Burnett = *Cruciferae* Juss.) — Капустные (Крестоцветные)

Turkum. Qurtana (*Sisymbrium* L.) — Гулявник

Turkum. Shoxtuk (*Microsisymbrium* O.E.Schulz) — Гулявничек

Turkum. Neotorulariya (*Neotorularia* Hedge ex J.Leonard = *Torularia* O.E.Schulz.) — Четочник

- Turkum.** Tellungiella (Thellungiella O.E.Schulz) — Теллунгиэлла
- Turkum.** Alliariya, Sarimsoqo't (Alliaria DC.) — Чесночник
- Turkum.** Eutrema (Eutrema R.Br.) — Эутрема
- Turkum.** Oqchechak (Arabidopsis (DC.) Heynh.) — Резушка
- Turkum.** Sassiqlapa (Descurainia Webb et Berth.) — Дескураиния
- Turkum.** Drabopsis (Drabopsis C.Koch) — Драбопсис, крупичка
- Turkum.** Olao't (Cymatocarpus O.E.Schulz) — Волноплодник
- Turkum.** Sofiopsis (Sophiopsis O.E.Schulz) — Софийка
- Turkum.** O'sma (Isatis L.) — Вайда
- Turkum.** Xartoloma (Chartoloma Bunge) — Бумагоплодник
- Turkum.** Sariqtoj (Pachypterygium Bunge) — Толстокрыл
- Turkum.** Tausheriya (Tauscheria Fisch. ex DC.) — Таушерия
- Turkum.** Goldbaxiya (Goldbachia DC.) — Гольдбахия
- Turkum.** O'roqtumshuq, Qizilcho'p (Spirorhynchus Kar. et Kir.) — Сертоносик
- Turkum.** Chitrang'i (Erysimum L.) — Желтушник
- Turkum.** Sireniya (Syrenia Andrz.) — Сирения
- Turkum.** Xesperis (Hesperis L.) — Вечерница
- Turkum.** Chitir (Malcolmia R.Br.) — Стригозелла
- Turkum.** Yag'liqqora (Leptaleum DC.) — Лепталеум
- Turkum.** Klausiya (Clausia Korn. Tr.) — Кляусия
- Turkum.** Mattiola (Matthiola R.Br.) — Левкой
- Turkum.** Tetrakme (Tetracme Bunge) — Четверозубец
- Turkum.** Oqchitir (Chorispora R.Br. ex DC.) — Хориспора
- Turkum.** Qarg'atirnoq (Euclidium R.Br.) — Крепкоплодник
- Turkum.** Litvinoviya (Litwinowia Woronov) — Литвиновия
- Turkum.** Barbareya (Barbarea Beck.) — Сурепка
- Turkum.** Rorippa (Rorippa Scop.) — Жерушник
- Turkum.** Yerqalampir (Armoracia Gaertn., Mey. et Scherb.) — Хрен
- Turkum.** Qaytaqigul, Nastursium (Nasturtium R.Br.) — Жеруха
- Turkum.** Soyak (Cardamine L.) — Сердечник
- Turkum.** Arabis (Arabis L.) — Резуха
- Turkum.** Qopchagul (Turritis L.) — Вяжечка, Башеница
- Turkum.** Momoqaltiroq (Alyssum L. = Psilonema S.A. Mey.) — Бурачок
- Turkum.** Meniokus (Meniocus Desv.) — Плоскоплодник
- Turkum.** Klipseola (Clypeola L.) — Щитница
- Turkum.** Chitir (Berteroa DC.) — Икотник, бертероа
- Turkum.** Draba (Draba L.) — Крупка
- Turkum.** Momosirka (Erophila DC.) — Веснянка
- Turkum.** Surilmao't, didimofiza (Didimophysa Boiss.) — Двойчатка
- Turkum.** Kamelina (Camelina Crantz) — Рыжик
- Turkum.** Nesliya (Neslia Desv.) — Неслия
- Turkum.** Tlaspi (Thlaspi L.) — Ярутка
- Turkum.** Jag'-jag' (Capsella Medik.) — Пастушья сумка
- Turkum.** Ojut (Megacarpaea DC.) — Крупноплодник

- Turkum.** Torol (*Lepidium* L.) — Клоповник
- Turkum.** Baltiriq (*Cardaria* Desv.) — Сердечница, Кардария
- Turkum.** Shtubendorffiya (*Stubendorffia* Schrenk) — Штубендорффия
- Turkum.** Konringiya (*Conringia* Adans.) — Конрингия
- Turkum.** Karam (*Brassica* L.) — Капуста
- Turkum.** Rango't (*Sinapis* L.) — Горчица
- Turkum.** Indov (*Eruca* Adans.) — Индау
- Turkum.** Sholg'omcha (*Rapistrum* Crantz.) — Репник
- Turkum.** Qatron (*Crambe* L.) — Кромбе, Катран
- Turkum.** Turp (*Rhaphanus* L.) — Редька
- Turkum.** Axorifragma (*Achoriphragma* Sojak=Parrya R.Br.) Ахорифрагма
- Turkum.** Silliqlmeva, leospora (*Leiospora* S.A.Mey. — Parrya R.Br. L.subscapigera (Botsch. et Vved.) Botsch. et Pachom.) — Голоплодник
- Turkum.** Toshot' (*Athelantha* Hook. fil. et Thoms.) — Неполно-пыльник
- Turkum.** O'roqlmeva (*Cryptopora* Kar. et Kir.) — Скрытосемянница
- Turkum.** Tetrakmidion (*Tetracmidion* Korsch.) — Четверозубец
- Turkum.** Buramameva (*Streptoloma* Bunge) — Скрученноплодник, завиток
- Turkum.** Qo'shmeva (*Diptychocarpus* Trautv.) — Двойкоплодник
- Turkum.** Iskandera (*Iscandera* N.Busch) — Искандера
- Turkum.** Tukdor (*Trichochiton* Kom.) — Волосатик
- Turkum.** Sakkizshox (*Octoceras* Bunge) — Восьмирог
- Turkum.** Sitareloma (*Cithareloma* Bunge) — Гитарник
- Turkum.** Laxnolama, junmeva (*Lachnoloma* Bunge) — Шерстоплодник
- Turkum.** Momiqmeva (*Lachnoloma* Bunge) — Sherstoplodnik
- Turkum.** Buxingera (*Buchingera* Boiss.) — Бухингера
- Turkum.** Spriginiya (*Spryginia* M.Pop.) — Спрыгиния
- Turkum.** Xalkantus (*Chalcanthus* Boiss.) — Медноцвет
- Turkum.** Stroganoviya (*Stroganowia* Kar. et Kir.) — Строгановия
- Turkum.** Bo'g'izbarg (*Hymenolobus* Nutt. ex Torr. et Gray) — Многосемянник
- Turkum.** Kampiloptera. Qiyshiqqanot (*Campyloptera* Boiss.) — Кривокрыльник
- Turkum.** Iberidella (*Iberidella* Boiss.) — Ибериечка
- Turkum.** Qarg'ako'z (*Neuroloma* Andr.) — Нервоплодник, неурагона
- Oila.** Sayoqdoshlar (*Resedaceae* S.F.Gray) — Резедовые
- Turkum.** Qalampirgul (*Reseda* L.) — Резеда
- Qabila.** Kunsevarnamolar (*Cistales*) — Ладанниковые
- Oila.** Kunsevardoshlar (*Cistaceae* Juss.) — Ладанниковые
- Turkum.** Kunsevar (*Helianthemum* Hill.) — Хелиантемум
- Qabila.** Gulxaygrinamolar (*Malvales*) — Мальвовые

Oila. Jo'kadoshlar (Tiliaceae Juss.) — Липовые

Turkum. Jut (Corchorus L.) — Джут

Turkum. Jo'ka (Tilia L.) — Липа

Oila. Gulxayridoshlar (Malvaceae Juss.) — Мальвовые

Turkum. Malope (Malope L.) — Малопа

Turkum. G'o'zagul, Xibiskus (Hibiscus L.) — Гибискус

Turkum. G'o'za (Gossypium L.) — Хлопчатник

Turkum. Tugmachagul (Malva L.) — Мальва

Turkum. Gulxayri (Althaea L.) — Алтея

Turkum. G'almas (Alcea L.) — Шток-роза

Turkum. Xatma (Lavotera L.) — Хатьма

Turkum. Dag'al kanop (Abutilon Mill.) — Канатник

Turkum. Anoda (Anoda Cav.) — Анода

Qabila. Gazandanamolar (Urticales) — Крапивные

Oila. Qayrag'ochdoshlar (Ulmaceae Mirb.) — Карагачевые,
ильмовые

Turkum. Qayrag'och (Ulmus L.) — Кайрагач, вяз

Oila. Qatrong'idoshlar (Celtidaceae Link) — Каркасовые

Turkum. Qatrong'i (Celtis L.) — Каркас

Oila. Tutdoshlar (Moraceae Link) — Тутовые

Turkum. Tut (Morus L.) — Тут, Шелковица

Oila. Nashadoshlar (Cannabaceae Endl.) — Коноплёвые

Turkum. Nasha (Cannabis L.) — Конопля

Turkum. Qulmoq (Humulus L.) — Хмель

Oila. Gazandadoshlar (Urticaceae Juss.) — Крапивные

Turkum. Gazanda (Urtica L.) — Крапива

Turkum. Bemeriya (Boehmeria Jacq.) — Бемерия

Turkum. Pariyetariya (Parietaria L.) — Постенница

Qabila. Sutlamanamolar (Euphorbiales) — Молочайные

Oila. Sutlamadoshlar (Euphorbiaceae Juss.) — Молочайные

Turkum. Ko'kmaraz (Andrachne L.) — Андрахна

Turkum. Sekrinega (Securinega Comm. ex Juss.) — Секринег

Turkum. Oshiqo't (Chrozophora Adr.Juss.) — Хрозофора

Turkum. Akalifa (Acalypha L.) — Акалифа

Turkum. Kanakunjut (Ricinus L.) — Клещевина

Turkum. Sutlama (Euphorbia L. = Tithymalus Scop. = Chamaesyce
S.F.Gray = Cystidospermum Prakh. — Молочай

Turkum. Lepadena (Lepadena Raf.) — Лепадена

Qabila. Kelinsupurginamolar (Thymelaeales) — Волочниковые

Oila. Kelinsupurgidoshlar (Thymelaeaceae Juss.) — Волочниковые = Тимелевые

Turkum. Timeliya (Thymelaea Mill.) — Тимелия

Turkum. Kelinsupurgi, diatron (Diarthron Turcz.) — Двучленник

Turkum. Dendrostellera (Dendrostellera (C.A.Mey.) Van Tiegh. Дендростеллера

Turkum. Isiran (Restella Pobed.) — Рестелла

Ajdodcha (sinfcha). Ra'nokabilar (Rosoidae) — Розоцветные

Qabila. Toshyorarnamolar (Saxifragales Juss.) — Камнеломковые

Oila. Semizakdoshlar (Crassulaceae DC.) — Толстянковые

Turkum. Tilovo't (Rosularia (DC.) Stapf) — Розеточница

Turkum. Soxtasemizak (Pseudosedum (Boiss.) Verger) — Ложноочиток

Turkum. Semizak (Sedum L.) — Очиток

Turkum. Rodiola, Zarchoy (Rhodiola L.) — Родиола

Oila. Toshyorardoshlar (Saxifragaceae DC.) — Камнеломковые

Turkum. Badan (Bergenia Moench) — Бадан

Turkum. Toshyorar (Saxifraga L.) — Камнеломка

Turkum. Filadelfus (Philadelphus L.) — Нубушник

Turkum. Deysiya (Deutzia Thunb.) — Дейция

Oila. Qoraqatdoshlar (Grossulariaceae DC.) — Крыжовниковые

Turkum. Qoraqat (Ribes L.) — Смородина

Qabila. Urutnamolar (Haloragales) — Сланоягодниковые

Oila. Urutdoshlar (Haloragaceae R.Br.) — Сланоягодниковые

Turkum. Urut (Myriophyllum L.) — Уруть

Qabila. Ra'nonamolar (Rosales) — Розоцветные

Oila. Ra'nodoshlar (Rosaceae Juss.) — Розоцветные

Turkum. Tobulg'i (Spiraea L.) — Таволга

Turkum. Pufakmeva (Physocarpus (Cambess.) Maxim.) — Пузыреплодник

Turkum. Sorbariya (Sorbaria (Ser. ex DC.) A. Br.) — Рябинник

Turkum. Maymunjon, Parmachak (Rubus L.) — Малина, ежевика

Turkum. Na'matak (Rosa L.) — Шиповник

Turkum. G'ozpanja (Potentilla L.) — Лапчатка

Turkum. Pentafilloides (Pentaphylloides Hill.=Dasiphora Raf.) — Пентафиллоидес

Turkum. Qulupnay (*Fragaria* L.) — Земляника, клубника
Turkum. Yerchoy (*Geum* L.) — Гравилат
Turkum. Shirchoy (*Orthurus* Juz.) — Прямохвостник
Turkum. Sariqchoy (*Agrimonia* L.) — Репейничек
Turkum. Ko'ko'g (*Poterium* L.) — Черноголовник
Turkum. G'ozyaproq (*Alchemilla* L.) — Манжетка
Turkum. Qonyutar (*Sanguisorba* L.) — Кровохлебка
Turkum. Mushmula (*Eriobotrya* Lindl.) — Мушмула японская
Turkum. Chetan (*Sorbus* L.) — Рябина
Turkum. Kerriya (*Kerria* DC.) — Керрия
Turkum. Nok (*Pyrus* L.) — Груша
Turkum. Olma (*Malus* Mill.) — Яблоня
Turkum. Behi (*Cydonia* Mill.) — Айва
Turkum. Yapon behisi (*Chaenomeles* Lindl.) — Японская айва
Turkum. Irg'ay (*Cotoneaster* Medik.) — Кизильник
Turkum. Pirakanta (*Rurasantha* Roem.) — Пираканта
Turkum. Do'iana (*Crataegus* L.) — Боярышник
Turkum. Qoramart (*Exochorda* Lindl.) — Экзохорда
Turkum. Tilosperma (*Tylosperma* Botsch.) — Мозолесемянница,
Turkum. Laurocerazus (*Lauroserasus* Hill.) — Лавровишня
Turkum. Shumurt (*Padus* Mill.) — Черёмуха
Turkum. Olvoli, Gilos (*Cerasus* Mill.) — Вишня
Turkum. Olxo'ri (*Prunus* L.) — Слива
Turkum. O'rik (*Armeniaca* Scop.) — Абрикос, урюк
Turkum. Bodom (*Amygdalus* L.) — Миндаль
Turkum. Shaftoli (*Persica* Mill.) — Персик

Qabila. Mirtanamolar (Myrtales) — Миртовые

Oila. Naykosadoshlar (*Lythraceae* J.St.Hil.) — Дербенниковые

Turkum. Hind nastarini (*Lagerstroemia* L.) — Лагерстремия. Индийская сирень

Turkum. Rotala (*Rotala* L.) — Ротала

Turkum. Ammonniya (*Ammonnia* L.) — Амманния

Turkum. Naykosa, Qarmoqcho'p (*Lythrum* L.) — Дербенник

Oila. Anordoshlar (*Runicaceae* Horan.) — Гранатовые

Turkum. Anor (*Punica* L.) — Гранат

Oila. Qizilbargdoshlar (*Onagraceae* Juss.) — Ослинниковые

Turkum. Qizilbarg, enotera (*Oenothera* = *Onagra* Nill.) — Энотера

Turkum. Ludvigiya (*Ludwigia* L.) — Людвигия

Turkum. Epilobium (*Epilobium* L.) — Кипрей

Turkum. Ivanchoy (*Chamaenerion* Adans.) — Иванчай

Oila. Suvyong'oqdoshlar (*Trapaceae* Dumort.) — Водяные орехи или рогульниковые

Turkum. Suvyong'oq (Trapa L.) — Водяной орех

Qabila. Burchoqnamolar (Fagales)—Мотыльковые

Oila. Burchoqdoshlar (Fabaceae Lindl. = Leguminosae Juss.) — Мотыльковые = Бобовые

Turkum. Tikandaraxt (Gleditschia L.) — Гледичия

Turkum. Sano (Cassia L.) — Кассия

Turkum. Arg'uvon (Cercis L.) — Богрянник, церцис

Turkum. Shoyi akatsiya, Albitsiya, (Albizia Durazz.) — Альбиция

Turkum. Jingak (Lagonychium M.Bieb.)—Мимозка

Turkum. Sezalpiniya (Cesalpinia L.) — Цезальпиния

Turkum. Vistariya (Wistaria Nutt.) — Вистария, глициния

Turkum. Tuxumak (Sophora L.) — Софора

Turkum. Talxak (Goebelia Bunge) — Горчак

Turkum. Achchiqbuta (Ammothamnus Bunge) — Аммотамнус

Turkum. Quyonsuyak (Ammodendron Fisch.) — Песчаная акация

Turkum. Akas (Robinia L.) — Робиния

Turkum. Bosma (Indigofera L.) — Индигофера

Turkum. Lespedetsa (Lespedeza Machx.) — Леспедеца

Turkum. Soya (Glycine Willd.) — Соя

Turkum. Loviya (Vigna Savi) — Ловия

Turkum. Fasol (Phaseolus L.) — Фасоль

Turkum. Oqquray (Psoralea L.) — Псоралея

Turkum. Amorfa (Amorpha L.) — Аморфа

Turkum. Yeryong'oq (Arachis L.) — Арахис

Turkum. Po'sildoq (Colutea L.) — Пузырник

Turkum. Shildirbosh (Sphaerophysa DC.) — Круглоплодник, сферофиза

Turkum. Patloq (Smirnowia Bunge) — Смирновия

Turkum. Qulonquyruq (Eremosparton Fish. et C.A.Mey.) — Еремосартон

Turkum. Ching'il (Halimodendron Fisch.) — Чингил, Чемыш

Turkum. Qarag'an (Caragana Lam.) — Караган

Turkum. Mayqarag'an (Calophaca Fisch.) — Майкараган

Turkum. Chezneya (Chesneya Lindl.) — Чезнея

Turkum. Astragal (Astragalus L.=Tragacantha Mill.) — Астрагал

Turkum. Gulobi, Oksitropis (Oxytropis DC.) — Остролодочник

Turkum. Yantoq (Alhagi Gagneb) — Янтак, верблюжья колючка

Turkum. Shirinmiya (Glycyrrhiza L.) — Солодка

Turkum. Meristotropis (Meristotropis Fisch. et C.A.Mey.) — Раздельнолодочник

Turkum. Eversmanniya (Ewersmannia Bunge) — Эверсманния

Turkum. Isirg'ao't, tangao't (Hedysarum L.) — Копеечник

Turkum. Zirako't (Onobrychis Mill.) — Эспарцет

Turkum. Lotus, Oq nilufar (Lotus L.) — Лядвенец
Turkum. Burchok (Vicia L.) — Вика
Turkum. Mulkak (Lathyrus L.) — Чина
Turkum. Yasmiq (Lens Mill.) — Чечевица
Turkum. Oq burchoq (Pisum L.) — Горох
Turkum. No'xat (Cicer L.) — Горох, нут
Turkum. Ononis (Ononis L.) — Стальник
Turkum. Qashqarbeda (Melilotus Mill.) — Донник
Turkum. Shambala (Trigonella L.) — Пажитник
Turkum. Beda, yo'ng'ichqa (Medicago L.) — Люцерна
Turkum. Sebarga (Trifolium L.) — Клевер
Turkum. Afsonak, Mastok (Thermopsis R.Br.) — Термопсис
Turkum. Kortalariya (Cortalaria L.) — Корталярия
Turkum. Lupin (Lupinus L.) — Lupin
Turkum. Kalispepla (Calispepla Vved.) — Калисепля
Turkum. Laburnum (Laburnum Medik.) — Бобовник
Turkum. Sitisus (Cytisus L.) — Ракитник
Turkum. Spartium (Spartium L.) — Метельник
Turkum. Genista (Genista L.) — Дрок

Qabila. Sapindnamolar (Sapindalest) — Сапиндовые

Oila. Sapindoshlar (Sapindaceae Juss.) — Сапиндовые
Turkum. Ksantotseras (Xanthoceras Bunge) — Клекачка
Turkum. Sovun daraxti (Koelreuteria Lahm.) — Кельрейтерия
Oila. Soxta kashtandoshlar (Hippocastanaceae DC.) Конско =

каштановые

Turkum. Soxta kashtan (Aesculus L.) — Конский каштан
Oila. Zarangdoshlar (Aceraceae Juss.) — Кленовые
Turkum. Zarang (Acer L.) — Клен

Qabila. Toshbaqatolnamolar (Rutales) — Рутовые

Oila. Toshbaqatoldoshlar (Rutaceae Juss.) — Рутовые
Turkum. Zantoksilon (Zanthoxylon L.) — Зантоксилон
Turkum. Evodiya (Evodia Forst.) — Эводия
Turkum. Toshbaqatol (Haplophyllum Adr. Juss.) — Цельнолистник
Turkum. Tog'turbit (Dictamnus L.) — Ясенец
Turkum. Barxat (Phellodendron Rupr.) — Бархат
Turkum. Pteleya (Ptelea L.) — Птелея
Turkum. Ponsirus (Poncirus Rafin.) — Понцирус
Oila. Aylantdoshlar (Simaroubiaceae DC.) — Симарубовые
Turkum. Aylant (Ailanthus Desf.) — Айлант
Oila. Meliyadoshlar (Meliaceae Juss.) — Мелиевые
Turkum. Meliya (Melia L.) — Мелия

Qabila. Pistanamolar (Burserales) — Сумаховые

Oila. Pistadoshlar (Anacardiaceae Lindl.) — Сумаховые

Turkum. Kotinus (Cotinus Hill.) — Скумпия

Turkum. Sirka daraxti (Rhus L.) — Сумах

Turkum. Toksikodendron (Toxicodendron Nill.) — Токсикодендрон

Turkum. Pista (Pistacia L.) — Фисташка

Qabila. Zig'irnamolar (Linales) — Льновые

Oila. Zig'irdoshlar (Linaceae DC. ex S.F.Gray) — Льновые

Turkum. Zig'ir (Linum L.) — Лён

Qabila. Qirmizaknamolar (Oxalidales) — Кисличные

Oila. Qirmizakdoshlar (Oxalidaceae R.Br.) — Кисличные

Turkum. Qirmizak (Oxalis L.) — Кислица

Qabila. Yorongulnamolar (Geraniales) — Гераниевые

Oila. Yoronguldoshlar (Geraniaceae Juss.) — Гераниевые

Turkum. Anjabor (Geranium L.) — Герань

Turkum. Laylaktumshuq (Erodium L., Her.) — Аистник, журавельник

Turkum. Yorongul (Pelargonium L.Her.) — Пеларгониум

Qabila. Qonteparnamolar (Biebersteiniales) — Биберштейниевые

Oila. Qontepardoshlar (Biebersteiniaceae Endl.) — Биберштейниевые

Turkum. Qontepar (Biebersteinia Steph.) — Биберштейния

Qabila. Xnagulnamolar (Balsaminales) — Бальзаминовые

Oila. Xnaguldoshlar (Balsaminaceae Rich.) — Бальзаминовые

Turkum. Xnagul (Impatiens L.) — Недотрога

Qabila. Tuyatovonnamolar (Zygophyllales) — Парнолистниковые

Oila. Tuyatovondoshlar (Zygophyllaceae R. Br.) — Парнолистниковые

Turkum. Tuyatovon (Zygophyllum L.) — Парнолистниковые

Turkum. Temirtikan (Tribulus L.) — Якорцы

Turkum. Chashma, Xalimifillum (Halimiphyllum (Engl.) Boriss.) — Галимифиллум

Oila. Isiriqdoshlar (Peganaceae (Engl.) Tiegh. ex Takht.) — Гармаловые

- Turkum.** Qumuzum (*Malacocarpus* Fisch. et A.Mey.) — Мягкоплодник
- Turkum.** Isiriq (*Peganum* L.) — Гармала
- Oila.** Oqchangaldoshlar (*Nitrariaceae* Bercht. et J.Presl.) — Селитрянковые
- Turkum.** Oqchangal (*Nitraria* L.) — Селитрянка
- Oila.** Chorchanoqdoshlar (*Tetradiclidaceae* (Engl.) Takht.) — Четырёхстворниковые
- Turkum.** Chorchanoq (*Tetradiclis* Stev.) — Тетрадиклис
- Qabila.** Qayiqchagulnamolar (**Polygalales**) — Истодовые
- Oila.** Qayiqchaguldoshlar (*Polygalaceae* R.Br.) — Истодовые
- Turkum.** Qayiqchagul (*Polygala* L.) — Истод
- Qabila.** Mingurug‘namolar (**Parnassiales**) — Белозоровые
- Oila.** Mingurug‘doshlar (*Parnassiaceae* S.F.Gray) — Белозоровые
- Turkum.** Mingurug‘ (*Parnassia* L.) — Белозор
- Qabila.** Normushknamolar (**Celastrales**) — Бересклетовые
- Oila.** Normushkdoshlar (*Celastraceae* R.Br.) — Бересклетовые
- Turkum.** Normushk (*Euonymus* L.) — Бересклет
- Qabila.** Marjono‘tnamolar (**Santalales**) — Санталовые
- Oila.** Marjono‘tdoshlar (*Santalaceae* R.Br.) — Санталовые
- Turkum.** Marjono‘t (*Thesium* L.) — Ленец
- Oila.** Qipiqbargdoshlar (*Viscaceae* Miers.) — Омеловые
- Turkum.** Qipiqbarg (*Arceuthobium* M.Bieb.) — Арцеутобиум
- Qabila.** Chilonjiydanamolar (**Rhamnales**) — Крушиновые
- Oila.** Chilonjiydadoshlar (*Rhamnaceae* Juss.) — Крушиновые
- Turkum.** Sageretiya (*Sageretia* Brongn.) — Сажеретия
- Turkum.** Jumrio‘t (*Frangula* Hill) — Крушина, Франгуля
- Turkum.** Bo‘g‘ibag‘ir (*Rhamnus* L.) — Крушина
- Turkum.** Qoratikan (*Paliurus* Hill) — Держи дерево
- Turkum.** Chilonjiyda, Unobi (*Ziziphus* Mill.) — Унаби
- Qabila.** Jiydanamolar (**Elaeagnales**) — Крушиновые
- Oila.** Jiydadoshlar (*Elaeagnaceae* Juss.) — Лоховые
- Turkum.** Chakanda (*Hippophae* L.) — Облепиха

Turkum. Jiyda (Elaeagnus L.) — Лох

Qabila. Toknamolar (Vitales) — Виноградовые

Oila. Tokdoshlar (Vitaceae Juss.) — Виноградовые

Turkum. Tok (Vitis L.) — Виноград

Turkum. Ampelopsis (Ampelopsis Mchx.) — Виноградник

Turkum. Partenotsissus (Partenocissus Planch.) — Дикий виноград

Ajdodcha (sinfcha). *Qo'ng'irpo'st kabilar (Cornidae)* —
Кизилловые

Qabila. Qo'ng'irpo'stnamolar (Cornales) — Кизилловые

Oila. Qo'ng'irpo'stdoshlar (Cornaceae Dumort.) — Кизи-
ЛОВЫЕ

Turkum. Qo'ng'irpo'st (Cornus L.) — Кизил

Turkum. Sinoksilon (Cynoxylon (Rafin.) Small.) — Циноксилон

**Qabila. Evkommiyanamolar (Eucommiales) — Эвкомми-
евые**

Oila. Evkommiyadoshlar (Eucommiaceae Yengl.) — Эвком-
миевые

Turkum. Evkommiya (Eucommia Oliv.) — Эвкоммия

**Qabila. Ziranamolar (Araliales) — Сельдерейные = Зон-
тичные**

Oila. Araliyadoshlar (Araliaceae Juss.) — Аралиевые

Turkum. Araliya (Aralia L.) — Аралия

Turkum. Xedera (Hedera L.) — Плюш

Oila. Ziradoshlar = Soyabonguldoshlar (Apiaceae Lyndl. =
Umbelliferae Juss.) — Сельдерейные = Зонтичные

Turkum. Ko'ktikan (Eryngium L.) — Синеголовник

Turkum. Beklaro'ti (Echinophora L.) — Колюченосец, колюченосник

Turkum. Shishpoya (Physocaulos Tausch.) — Вдустостебель

Turkum. Jo'yakpoya (Anthriscus Pers.) — Купырь

Turkum. So'zanak (Scandix L.) — Кервель, Скандикс

Turkum. Albertiya (Albertia Regel et Schmalh.) — Альбертия

Turkum. Pufakchi (Torilis Adans.) — Пузырник

Turkum. Qumsevar (Psammogeton Edgew.) — Песколюб

Turkum. Chaqamig' (Turgenia Hoffm.) — Тургеневия

Turkum. Orlaya (Orlaya Hoffm.) — Орля

Turkum. Kashnich (Coriandrum L.) — Кориандр, Кашнич,

Turkum. Shurovskaya (Schtschurovskia Regel et Schmalh.) — Шуровская

Turkum. Arxarshair. Shrenkiya (Schrenkia Fisch. et Mey.) — Шренкия

- Turkum.** Upor, Lipskiya (Lipskya (K.Pd.) Nevski) — Липский
- Turkum.** Bifora (Bifora Hoffm.) — Бифора
- Turkum.** Astomatopsis (Astomatopsis Eug. Kor. = Astomaea Reichenb.) — Астоматопсис
- Turkum.** Soqqasoyabon (Sphaerosciadium M. Pimen. et Kljukov. = Danaa All.) — Шарозонтичник
- Turkum.** Zangroya (Conium L.) — Белиголов
- Turkum.** Ximenolena (Hymenolaena DC.) — Гименолена
- Turkum.** Jo'yakmeva (Aulacospermum Ledeb. = Trachydium Lindl.) — Борзодоллодник
- Turkum.** Cho'lsabzi (Eremodaucus Bunge) — Пустынноморковник
- Turkum.** Shashir (Prangos Lindl. = Cryptodiscus) — Прангос
- Turkum.** Bupleurum (Bupleurum L.) — Володушка
- Turkum.** Afanopleura (Aphanopleura Boiss.) — Неяснореберник
- Turkum.** Qumzira (Cuminum L.) — Кмин
- Turkum.** Qarafs (Apium L. = Helosciadium Koch) — Сельдерей
- Turkum.** Petrushka (Petroselinum Hill.) — Петрушка
- Turkum.** Traxispermum (Trachyspermum Link) — Айовон
- Turkum.** G'ozoyoq, Falkariya (Falcaria Fabr.) — Резак
- Turkum.** Qorazira (Carum L.) — Тмин
- Turkum.** Zira (Bunium L.) — Буниум
- Turkum.** Zarafshoniy (Zeravschania Eug. Kor.) — Зеравшания
- Turkum.** Elaeostikta (Elaeosticta Fenzl = Muretia Boiss.) — Елаеостикта
- Turkum.** Korjinskiya (Korshinskya Lipsky) — Коржинский
- Turkum.** Arpabodiyon (Pimpinella L. = Anisum Hill.) — Бедренец
- Turkum.** Oqtosh (Aegopodium L.) — Сныть
- Turkum.** Sium (Sium L.) — Поручейник
- Turkum.** Berula (Berula Koch = Siella M. Pimen.) — Борула
- Turkum.** Seseli (Seseli L. = Libanotis L.) — Жабрица
- Turkum.** Alqor (Mediasia M. Pimen.) — Медиазия
- Turkum.** Oyenante (Oenanthe L.) — Омежник
- Turkum.** Oq zira (Foeniculum Mill.) — Фенхель
- Turkum.** Ponapanja (Sphaenolobium M. Pimen. = Selinum L.) — Клинолистник, клинолопастник
- Turkum.** Xialolena (Hyalolena Bunge) — Гиалолена
- Turkum.** Paraligustikum (Paraligusticum V. Tichomirov = Ligusticum) — Паралигустикум
- Turkum.** Yo'g'onqobirg'a (Pachypleurum Ledeb.) — Толстореберник
- Turkum.** Lomatokarpa (Lomatocarpa M. Pimen. Meum auct.) — Окаймленноплодник
- Turkum.** Konioselinum (Conioselinum Hoffm.) — Гирчовник
- Turkum.** Vvedenskiya (Vvedenskya Korov.) — Введенская
- Turkum.** Arxarut (Angelica L. = Archangelica N.M. Wolf) — Душник
- Turkum.** Galaganiya (Galagania Lipsky = Johrenia DC., Korovinia Nevski et Vved.) — Галагания

- Turkum.** Kovrak (Ferula L.=Schumannia O.Ktze) — Ферула
Turkum. Ladiginiya (Ladyginia Lipsky) — Ладыгиния
